

MAKEDONIYALIK ALEKSANDRNING HARBIY YURISHLARINI GEOGRAFIK YO'NALISHLARI

Ibragimov Anvar Qadamboy o'g'li

Urganch Davlat universiteti

Ijtimoiy – Iqtisodiy fanlar fakulteti Tarix (mintaqalar va yo'nalishlar bo'yicha)

yo'nalishi 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlarining yo'nalishlari haqida o'rganadi. Shuningdek ushbu maqola Aleksandrning harbiy yurishlari natijasida vujudga kelgan ulkan saltanatning geografik o'ri haqida ma'lumot beradi. Aleksandr haqida o'tkazilgan tadqiqotlar, uning tarixini yanada chuqurroq o'rganishga, taxlil qilishga va rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Makedoniya, Aleksandr Makedonskiy, Filipp II, Aristotel, Doro III, Satraplik, Spitamene, Oksiart, Roksana.

Аннотация: В данной статье рассматриваются направления военных походов Александра Македонского. Также в данной статье представлена информация о географическом положении огромного царства, возникшего в результате военных походов Александра. Исследования, проведенные об Александре, служат основой для дальнейшего изучения, анализа и развития его истории.

Ключевые слова: Македония, Александр Македонский, Филипп II, Аристотель, Дарий III, Сатрапик, Спитамен, Оксиарт, Роксана.

Abstract: This article examines the directions of Alexander the Great's military campaigns. Also, this article provides information about the geographical location of the huge kingdom that arose as a result of Alexander's military campaigns. The research conducted about Alexander serves as a basis for further study, analysis and development of his history.

Key words: Macedonia, Alexander the Great, Philip II, Aristotle, Darius III, Satraplik, Spitamen, Oxyart, Roxana.

Makedoniya podshosi Filip II va uning rafiqasi Olimpiadaning o'g'li. Aleksandr Aristoteldan ta'lim olgan, harbiy ishni otasidan o'rgangan. Filip II (Philippos), (miloddan avvalgi taxminan 382-336), Sharqda Faylaqus – Makedoniya podshosi (miloddan avvalgi 359-yildan). Aleksandrning otasi mil.avv.359-yildan Makedoniyani birlashtirib, yagona davlat tuzishga erishadi. Makedoniyaning mavqeyini ko'tarish, uning siyosiy, iqtisodiy, ayniqsa harbiy mavqeyini kuchaytirish maqsadida bir qancha harbiy islohotlarni amalga oshiradi. Muntazam qo'shin va kuchli harbiy dengiz floti hamda Makedoniya falangasini tashkil qiladi, yagona pul birligini joriy etadi, oltin tangalar zarb qildiradi. Mil.avv.359-336 yillarda Peoniya, Fessaliya, Illiriya (bir qismi) kabi qo'shni davlatlar, so'ngra esa, Xalkidika va boshqa Egey dengizi bo'yi mamlakatlarini zabt etadi. Makedoniya tobeligiga Epir, Frakiya va boshqa bir qator mamlakatlar tushib qoladi. Mil. avv. 338-yil Xeroniya yaqinidagi jangda yunonlarning birlashgan harbiy kuchlarini tormor etadi. Natijada, Yunoniston Makedoniyaning yakka hukmronligi tan oladi. Shundan so'ng Fillip II Fors hududlariga yurish qilishni rejalashtiradi. Biroq u saroy fitnasi qurboni bo'ladi. Ushbu suiqastda Fillip II ning xotini, ya'ni Aleksandrning onasi Olimpiadaning ham qo'li borligi hususida mishmishlar tarqaladi. Aleksandr suiqasd ishtirokchilarini qidirib topadi va ularni jazolaydi. Fillip IIning o'limidan keyin taxtga uning 20 yoshli o'g'li Aleksandr (miloddan avvalgi 336-323-yillar) o'tiradi. Sharqda u Iskandar Zulqarnayn (Buyuk Iskandar) nomi bilan mashhurdir. U taxtga kelgandan so'ng otasining harbiy yurishlarini davom ettiradi va Yunonistonni o'ziga bo'ysundiradi. Aleksandr Makedonskiy Osiyo hududiga yurish qilishga juda puxta tayorgarlik ko'radi, askarlari safini yunon piyodalari bilan bilan to'ldirgan Aleksandr mil. avv. 334-yilda Gellesport bo'g'ozidan o'tib Osiyo hududiga kirib boradi. Bu yerda u Fors qo'shini bilan to'qnashadi va jangda aleksandirning qo'li baland keldi. Bu forslar bilan dastlabki jang hisoblanib Kichik Osiyodagi Granik daryosi bo'yida bolib o'tgan, jangdan so'ng Kichik Osiyoning

katta qismini boysundirdigan Aleksandr keyingi istilochilik harakatlarini Shimoliy Suriyaga qaratdi. Mi. avv. 333-yil kuzda Iss shahri yaqinidagi jangda yunon-makedonlar Doro III qo'shinlarini katta qiyinchilik bilan mag'lubiyatga uchratdi. Iss yaqinidagi jangdan so'ng Doro III oilasini tashlab Markaziy Eronga qochib ketadi. Uning oilasi Aleksandrga asirga tushadi. Bu jang Suriya va Falastin qirg'oqlarini bosib olish uchun yo'l ochib berdi. Damashq shahridagi Doro III xazinasini bosib olingandan so'ng, Iskandar qo'shinlarining moddiy taminoti ancha yaxshilandi. Keyinchalik G'azo shahri qo'lga kiritilib, Misrga yo'l ochiladi va Misr ham egallandi. Mil.avv. 331-yilda O'rta yer dengizi qirg'og'ida, Nil daryosi bo'yida Iskandariya shahriga asos soladi. Mil. avv. 331-yil bahoridan Sharqqa yurishning ikkinchinni boshlaydi. Aleksandr mil.avv.331-yil 1-oktabrda Gavgamel yonidagi jangda forslar shohi Doro III ning qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratadi. Shundan so'ng ikki daryo oralig'idagi va unga tutash bo'lgan Bobil,Suza, Persopol,Eron poytaxti Pasargad yunon-makedon qo'shinlari tomonidan egallanadi.Suza shahrini egallagandan so'ng mil. avv. 330-yilda Persopol saroyini yoqib yuboradi, bu Aleksandrning forslar ustidan ga'laba qozonganini rasmiy belgisi edi. Keyinchalik Aleksandrga Parfiya ham jangsiz taslim bo'ldi. Aleksandrning keyingi yurishlari mil.avv. 329-yildan Amudaryoning shimoliy hududlariga qaratildi. Bu yerda Spitamen boshchiligidagi sak-massagetlar Aleksandrga uch yil davomida qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Mil.avv. 327-yilda Spitamen Baqtriyada va Quyi Zarafshonda makedonlarga qarshi hujum uyushtiradi. Ammo Spitamen qo'zg'aloni muvoffaqyatsizlikka uchraydi. Spitamen o'ldirilgandan so'ng esa ko'pchilik sog'diylar tog'ga qochib yashirinadilar, qo'zg'alonning markazi So'g'diyona butkul harobaga aylanadi. Mil.avv. 328-yilda Aleksandr Hisor tizmasida joylashgan, sug'd zodagoni Oksiart egallab turgan „So'g'd qa'lasini qo'lga kiritib, uning go'zal qizi Ruxshanak (Roksana)ga uylanadi. Rivoyatlarga ko'ra Aleksandr O'rta Osiyada o'z tayanch nuqtasi sifatida 12 shahar qurdiradi. Tarixda malum bo'lgan Xo'jand shahri yaqinida, ya'ni Sirdaryoning bo'yida Aleksandriya Esxota (uzoqdagi Aleksandriya), Oksdagi Aleksandriya, Marg'iyona Aleksandriyasi, Afg'onistonda Hirot yaqinida Aleksandriya Ariya kabi shaharlar shular

jumlasidandir. Aleksandr Baqtriya, Sug'diyona va Ustrushonaning bir qismini egallab mil. avv. 327-yilda Hindistonga qarshi yurish boshladi. Mil.avv.327-325-yillarda Hindistonning g'arbiy viloyatlarini qo'lga kiritdi. Shimoliy Hindistonning Gidas daryosi bo'yidagi Aleksandr qo'shinlari Panjob hukmdori Por qo'shinlari bilan to'qnashib, o'zining oxirgi g'alabasiga erishdi. To'satdan Aleksandr qo'shinlari jang qilishni hohlamay qoladi va Aleksandr qo'shiniga vatanga qaytish to'g'risida buyruq berishga majbur bo'ladi. U 325-yili Ikki daryo oralig'iga qaytib Bobilni buyuk saltanatining markaziga avlantiradi. Makedoniyalik Aleksandr buyuk saltanatni ikki yildan oshiqroq boshqaradi. Aleksandr umri davomida juda ko'p harbiy yurishlarni amalga oshirdi va g'arbda Adriatika dengizidan sharqda Hindistongacha, shimolda Kavkaz tog'laridan janubda Nil daryosining o'rta oqimiga qadar cho'zilgan hududlarni egalagan ulkan saltanatga asos soldi. Ammo Aleksandr mamlakatni uzoq vaqt boshqara olmadi. 2 yil hukmronlik qilgandan so'ng Aleksandr mil.avv.323-yilda keyingi yurishga tayorgarlik ko'rayotgan vaqtda 33 yoshida Bobil shahrida vafot etadi. Aleksandr tuzgan davlat unchalik mustahkam emas edi. Ayni paytda bu davlatni boshqara oladigan munosib voris ham yo'q edi. Shuning uchun ham uning vafotidan keyin tuzgan davlati uch qismga bo'linib ketadi va ular eng yaqin lashkarboshlari boshlari tomonidan boshqariladi.

Xulosa; Makedoniyalik Iskandar bu nomni juda ko'p eshitganmiz albatta u o'z zamonasining har jihatdan yetuk lashkarboshi va hukmdori sanaladi. U faoliyati davomida ko'plab yurishlarni amalga oshiradi va juda ulkan sarhadlarni egallagan Yunon-makedon davlatini tuzadi. Aleksandr shaxsini ulug'lab bo'lmaganidek, ta'bir joiz bo'lsa, unga nisbatan faqatgina salbiy fikrlarni yuritib uni bosqinchi deyishimiz ham noo'rindir. Chunki antik zamonlarda bosqinchilik yurushlari ulug'langan. Shu bilan birga, tarix sahifalarini o'qib shunday bir xulosaga kelamizki Aleksandr Makedonskiy xarakterida shunday bir xislat bor ekan: bu ham bo'lsa, u o'z ixtiyori bilan taslim bo'lgan xalqlarga ozor bermagan. Demak shundan ham ma'lumki Aleksandr o'qimishli, uquvli, xalq siyosatani tushunadigan, adolatli hukmdor bo'lgan. Aleksandr bosqinidan keyin O'rta Osiyo tarixda "ellenizm" madaniyati yoyiladi. Uning natijasida madaniyatimiz

boyidi va biz ulardan ko'plab madaniy ,ijtimoiy,iqtisodiy-siyosiy va boshqa sohalarni o'zlashtirdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R. Rajabov – “Qadimgi Dunyo tarixi’ (Qadimgi sharq), Toshkent (Fan va Texnologiya) – 2009, 286-290 betlar.
2. A. Kabirov – “Qadimgi Sharq tarix”, Toshkent (Tafakkur) – 2016, 276-280 betlar.
3. F. Boynazorov – “ Qadimgi Dunyo tarixi”, Toshkent (Iqtisod – Moliya) – 2006, 203-207 betlar.
4. A. Sagdullayev – “ O'zbekiston tarixi”, Toshkent (Donishmand ziyosi) – 2021, 200-202 betlar.